



Tadqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ISAAK NYUTON  
(1643-1727)



2022  
APREL  
№39



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.



+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00



[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)

[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
8-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-8**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-8**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 39-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 16 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохода Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги хузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**АДАБИЁТ**

<b>1. Низомиддинов Афзал Аъзам ўғли</b>	
МАҚСУД ШАЙХЗОДА ҲАЁТИ ВА ИЖОДИ.....	7
<b>2. Низомиддинов Афзалбек Аъзам ўғли</b>	
МАҚСУД ШАЙХЗОДА .....	9
<b>3. Axmedova Diyora Xatamqul qizi</b>	
MAQSUD SHAYXZODANING “TOSHKENTNOMA” DOSTONI HAQIDA.....	11
<b>4. G’aniyeva Turg'unoy To'ychi qizi</b>	
TARIXIY ROMANDA MUALLIF TO'QIMASI VA TARIXIY HUJJATLARGA ASOSLANGANLIK MASALASI .....	13



## АДАБИЁТ

### МАҚСУД ШАЙХЗОДА ҲАЁТИ ВА ИЖОДИ.

**Низомиддинов Афзал Аъзам ўғли**

Тошкент давлат транспорт университети

“Электротехника ва компьютер мұхандислиги”

факультети 2-босқич талабаси

nizomiddinovafzalbek@gmail.com

**Аннотация:** Ушбу мақолада Мақсуд Шайхзоданинг ҳаётий кечмишлари ва ижоди кенг талқин қилинган. Шоир, драматург, адабиётшунос, таржимон, педагог Мақсуд Шайхзодага билдириган шоир ва ёзувчиларнинг фикрлари ифода этилган.

**Калит сўзлар:** Мақсуд Шайхзода, Ўн шеър, Ундошларим, Учинчи китоб, Жумхурият, “Тошкентнома” достони, “Мирзо Улуғбек” трагедияси,

Мақсуд Мақсумбек ўғли Шайхзода 1908-йилда Озарбайжон Республикаси Ганжа вилояти Оқтош шаҳрида таваллуд топди. [1]. Бошланғич ва Ўрта маълумотни Оқтошда олгач, Боку Олий педагогика институтида сиртдан ўқиди. Шайхзода 1928-йилда Тошкентга келиб, турли газета ва журналлар таҳририятларида, 1935-1938 йилларда эса Фанлар қўмитаси қошидаги тил ва адабиёт институтида илмий ходим бўлиб ишлади. Шоирнинг адабий фаолияти 1929-йилдан бошланди унинг “Ўн шеър” (1932), “Ундошларим” (1933), “Учинчи китоб” (1934), “Жумхурият” (1934) тўпламлари нашр этилишни бошлади. [2-3-4-5]. Оташин шоир мустабид тузумнинг жабр-зулумидан четда қолмад. У биринчи бор 1928-йили қамоқقا олинди. З йилга Ўзбекистонга сургун қилинган эди. Ёзувчилар уюшмасидан ўчирилиб, 1952-йил 22-сентябрда қамоққа олинади ва 25 йилга озодликдан маҳрум қилинади. Шоир Сталин вафотидан кейин озодликка эришди, ижодга қайтиб, 1958-йили кўхна ва навқирон Тошкент шаҳрига бағишлиланган “Тошкентнома” лирик достонини ёзди.[6]. 1960-йилда “Мирзо Улуғбек” трагедиясини ёзib, унда буюк мунажжим ва маърифатпарвар давлат арбоби Мирзо Улуғбек образини яратди.[7]. Шайхзода Пушкиннинг “Мис чавандоз”, Лермонтовнинг “Кавказ асри”, Маяковскийнинг “Жуда соз”, Шекспирнинг “Ҳамлет” ҳамда “Ромео ва Жулетта” трагедияларини ўзбек тилига ўтирги. Шоир 1967-йил Тошкентда вафот этди. 2001-йили ўзбек адабиёти ва маданияти ривожига қўшган улкан ҳиссаси учун “Буюк ҳизматлари учун” ордени билан тақдирланди.

Шайхзода ақл маъносидагина эмас, сиймо маъносида ҳам ҳаммамиздан ажralиб турарди. Мухтор оғанинг беозор саволи унга эриш туюлмади. Аксинча, ҳамма ерда, ҳамма вақт, ҳамма мухит ва шароитда қалбини обод қилган фаҳр туйғусини жўштириб юборди. У суюниб, ҳатто фаҳрланиб, озарбайжонлик эканини, Озарбайжондан келганини айтди. Шу сўзларни айтиб турганида Мақсуднинг юзига худди осмондаги қуёш қўчиб тушгандек бўлди (Мақсуд Шайхзода ҳақида хотиралар саҳифасидан).

Ўзбек адабиётининг буюк намояндалари – Faфур Ғулом ва Ойбек каби оташнафас санъаткорлар сафида ижод қилган Мақсуд Шайхзода зуваласи шеърият шуъласи билан ёрилган куйчи эди. Унинг асарларида буюк инқилобий идеаллар, жўшқин ватанпарварлик туйғулари, чинакам ижодий ҳиссиятлар билан яшаган ёниқ қалбнинг гулдурос акс садоси мужассам топган (Мирзо Иброҳимов, Озарбайжон халқ ёзувчиси).

Хуршид Даврон



## ШАЙХЗОДА ХОТИРАСИГА

Кўкка зийрак қулоқ тутарди  
Тутмоқ бўлиб тун овозини,  
Қиз юзига энгашган каби  
Эгиларди қофозга бирдан.  
Кечалари ойнинг шуъласи  
Ёритаркан шеър қофозини,  
Тутатарди папиросини  
Ёниб турган қалами билан.

1983-йилда ёзилган ушбу сатрларга қаранг. Шайхзодага шундай тариф берилган: тун овозини эшитиш учун кўкка бокувчи, қофозга қиз юзига эгилгандай эгилувчи бағри кенг инсон.

“Кирқ йил муқаддам XX аср ўзбек адабиётининг буюк сиймоларидан бири Мақсуд Шайхзоданинг жабрдийда юраги уришдан тўхтади. Ўтган давр мобайнида унинг тенгдошлари, издошлари, шогирдлари ва мухлисларининг ҳам аксари ҳаётдан кўз юмди. Шу даврда туғилиб вояга етган авлод эса унинг жўшқин сўзини эшитмай, нурли чехрасини кўрмай, танти қалбининг саховатидан баҳраманд бўлмай ўсмоқда. Бинобарин, уларнинг Шайхзодани нафақат буюк шоир, балки буюк инсон сифатида ҳам идрок этиши, унинг порлоқ истеъоди олдида таъзим қилиши қийин. Шунинг учун ҳам бу оташнафас шоирнинг ҳаёти ва ижоди, қандай ноёб сиймо бўлгани тўғрисида ёзиш биз — замондошларнинг вазифамиздир” деб ёзади - Наим Каримов.

Мақсуд Шайхзода ўзбек адабиёти ривожига катта ҳисса қўшган, мустабит тузуми даврида азоб чеккан, шоир, драматург, адабиётшунос, таржимон, педагогдир. Унинг шеърларида жўшқинлик, севги, ватанга меҳр каби туйгулар сезилади. Шайхзодадек аждодларимиз борлигидан фаҳрланамиз. Аждодларимиз ҳаёти, ижоди ва меросларини ўрганишлик, улардан ҳабардор бўлишлик ҳамда уларни ҳаётга тадбиқ қилишлик – бизни факат ва факат муваффақият сари етаклайди.



## МАҚСУД ШАЙХЗОДА

Низомиддинов Афзалбек Аъзам ўғли

Тошкент давлат транспорт университети

“Электротехника ва компютер муҳандислиги”

факултети 2-босқич талабаси

nizomiddinovafzalbek@gmail.com

**Аннотация:** Буюк мутафаккир ва шоир Алишер Навоийга “Ғазал мулкининг султони” дея илк маротаба эътироф этган юксак истеъод соҳиби,нафис ва ўткир дидли, беғубор нажиб бир инсон ҳақида сўз кетгандан кўз ўнгимизга Мақсуд Шайхзоданинг ёрқин сиймоси намоён бўлади.

**Калит сўзлар:** Мутафаккир,истеъод, Озарбайжон,маҳорат,уруш йиллари,қадр,публиси стик,жанр,таржимон,нажиб.

Ўзбек ҳамда Озарбайжон халқларининг фарзанди бўлмиш Мақсуд Шайхзода 1908-йилда Озарбайжоннинг Оқтош шаҳрида таваллуд топган. Отасининг касби шифокорлик бўлсада, шеъриятни ниҳоятда севган фарзандларига адабиётга муҳаббат туйғусини сингдирган инсон эди.Бошланғич ва ўрта маълумотни Оқтошда олгач,Боку Олий педагогика институтида сиртдан ўқида ва 1925-йилдан бошлаб Дарбанд шаҳрида муаллимлик билан шуғулланди. Шайхзода 1928-йилда Тошкентга келиб,турли газета ва журнallар таҳририятида,1935-1938-йилларда эса Фанлар қўмитаси қошидаги тил ва адабиёт институтида илмий ходим,1938-йилдан то умрининг сўнгига қадар Низомий номли Тошкент Давлат педагогика институтида ўзбек классик адабиёти кафедрасида доцент вазифасида ҳизмат қилиб,юқори малакали кадрлар тайёрлашда иштирок этди. Унинг дастлабки шеърлари 1929-йилда пайдо бўлди. Унинг “Ўн шеър”(1932),”Ундошларим”(1933),”Учинчи китоб”(1934),”Жумҳурият”(1934) тўпламларининг нашр этилиши адабиётга ўзига хос овозли шоир кириб келаётганидан дарак берди. Шундан кейин у, муттасил ўз шеърлари билан чиқа бошлади.Шайхзоданинг шеърий маҳорати ўттизинчи йилларнинг оҳирларида ўса бошлади.У даврнинг барча муҳим масалаларини ёритувчи шеърлар ёзди.Улуғ Ватан урушининг ҳаяжонли йиллари адабиёт учун ҳам синов, ҳам кўтарилиш йиллари бўлди.Шайхзоданинг бу даврда яратган шеърий асарлари шоир ижодининг чўққиси ,унинг бадий истеъодининг юксак даражаси бўлди десак адашмаймиз Урушнинг биринчи кунлариданоқ жанг қаҳрамонлари улуғловчи “Кураш нечун?”(1941), “Жанг ва қўшиқ”(1942),”Кўнгил дейдик..” каби шеърий тўпламлари,”Жалолиддин Мангуберди”(1944) тарихий драмаси ва бошқа қатор публицистик асарларини чоп этди. Оташин шоир мустабид тузумнинг жабр-зулимидан четда қолмади. У биринчи бор 1928-йили қамоққа олинган ва советларга қарши ташвиқотда айбланиб,3 йилга Ўзбекистон Ёзувчilar уюшмасидан ўчирилиб,1952-йил 22-сентябрда қамоққа олинади ва 25 йилга озодликдан маҳрум этилади. Мақсуд Шайхзода Ўзбекистонни севар,унинг мадҳига ажойиб қасидалар яратган эди.Шоирнинг 1934 йилда яратган викор ва улуғворликка тўла “Жамҳурият” шеъридан бошлаб, то 1958 йили ёзилган нодир шеърий ёдгорлик бўлмиш “Тошкентнома” достонигача , Ўзбекистонни тавсиф этиб ёзган барча шеърларини бунинг яққол ифодаси десак бўлади.Шайхзоданинг бутун ижоди сиёсий публицистик руҳ билан тўла. Унинг шеърий,драматис асарлари қайси мавзуда бўлмасин, замонамиз билан ҳамоҳангдир. Шайхзоданинг публицистик мақолалари унинг шеърлари каби туйғулар түғенидан келиб чиқади. Худди ана шу хусусият шоирнинг бадий таржима соҳасидаги фаолиятида ҳам яққол намоён бўлади.Пушкин,Лермонтов,Некрасов шеърларини ўзбек тилида илк маротаба тақдим этган шоирлар авлодида Шайхзода ҳам бор.1948 йилда Шайхзода Навоий ижоди бўйича докторлик диссертацияси тайёрламоқда эди.Афсуски бевақт ўлим бу катта мақсадни амалга оширишга йўл қўймади. 1967 йили феврал ойида ўзбек адабиёти катта мотамга чўмди. Юксак шеърий истеъод ва илм соҳиби Мақсуд Шайхзода дунёдан ўтди. Унинг вафотидан сўнг олти жилдлик «Асарлар»и нашр этилди.Мустақиллик йилларида марҳум Мақсуд Шайхзода ижоди ва қилган ҳизматлари ҳақиқий қадр топиб, 2001-йили «Буюк ҳизматлари учун» ордени билан тақдирланди.Шайхзоданинг ўлмас хотирасини эҳтиром билан эслар эканмиз, ҳар биримиз шоирнинг жонли мисраларини такрорлаймиз;



Умрлар бўладики,  
Тиригидан ўлиқдир.  
Умрлар бўладики,  
Мангаликда тириқдир.

Шайхзоданинг ўзбек адабиёти тарихи, ўзбек халқ оғзаки ижоди, хусусан, Алишер Навоий ижодини тадқиқ этиш борасидаги илмий ишлари ҳам таҳсинга сазовордир. Адибнинг асарлари қўплаб қардош ва хорижий халқлар тилларига таржима қилинган.



MAQSUD SHAYXZODANING “TOSHKENTNOMA” DOSTONI HAQIDA

Axmedova Diyora Xatamqul qizi  
Toshkent Davlat Transport Universiteti  
2-bosqich talabasi  
E:mail: axmadovadiyora03@gmail.com  
Tel:998938251203

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Maqsud Shayxzodaning eng go’zal va o’ziga xos asarlaridan biri bo’lgan “Toshkentnoma” dostoni to’g’risida keltirilgan. Shayxzodaning ijodi aynan Toshkentda dunyoga kelgan. Shu yurda uning o’zi ijod qilib, shu yurda vafot etgan. Qisqa 59 yil umr ko’rgan bo’lsa-da, havas qilarlik ijod qilgan Shayxzodaning yashagan yurti haqida yozilgan “Toshkentnoma” barcha ijodkor va kitobxonlarning mehrini qozongan. Ushbu asar darsliklarga ham kiritilgan bo’lib, yana ming yillar yashashiga biz yoshlarning ishonchimiz komil.

**Kalit so’zlar:** Toshkentnoma, doston, urush, poytaxt, tinchlik, Salomobod, ziyoratgoh, turist, falsafiy, tarixiy, adabiy, qadimiy, yetim, bayt, satr, poema

Maqsud Shayxzoda Ozorbayjonda tug’ilgan. O’rta va oliv ta’limni Ozorbayjonda olgach, bir necha yillaruyerda ishlaydi ham. 1928-yilga kelib esa vatanini mustaqil davlatga aylantirish haqidagi erkin fikrlari uchun ayblangan va Toshkentga badarg’ a qilingan. O’sha vaqtidan boshlab uning 39 yil davomidagi hayoti va ijodi Toshkentda davom etadi. Shu davr ichida Toshkentga mehri tushgan Shayxzoda uyerni ham o’z vatani hisoblaydi. 1957-yilda azim poytaxtimiz bo’lmish Toshkent haqida teran adabiy, falsafiy, tarixiy va ehtirosli tuyg’ularga boy bo’lgan “Toshkentnoma” dostonini bitgan.

Dostonda Toshkent shunday go’zal ta’riflanganki, hatto uning ta’rifini eshitganlar ishonmay, borib ko’rmoqlikni istaydi va uning ta’rifiga shaharni ko’rgach ishonishadi. Quyosh nuri doim kulib charaqlaydigan yurtimizning suvi, soyi, soyasi ko’pligi aytildi. Ammo “Toshkentnoma” dostonida jahonda 2-jahon urushi bo’lib o’tganiga ko’p o’tmasdan yozilganligi uchun urush haqidagi satrlar ham o’rin egallagan.

Tinchlik bizga qimmat tushdi,  
Erk yo’lida el urushdi.  
Xotirlardan chiqmas, evoh,  
Og’ir sinov haftalari...

Ushbu satrlarda keltirilgan urush “evoh”lari xalq dardini, ularning urush davridagi og’ir hayot kechinmalarini, va doston yozilgan vaqtida ham urush asoratlari bitmagani ochiq-oydin yoritilgan. Lekin doston davomida Toshkent yengimasligini, poytaxtimiz shuhrat topganligini tushunib yetamiz. Bunga sabab, o’zbek xalqining ochiqko’ngil, mehribon, saxiy ekanligini ushbu doston orqali ham ko’rib olish qiyin emas. Sababi urush yillari qiyin, o’ta og’ir, ocharchilik tarzda kechgan bo’liahiga qaramay, 14 nafar yetim bola asrab oлgan o’zbekistonlik temirchi Shoaxmad aka va Bahri opaga rahmatlar aytsak arziydi.

Sharqning havo darvozasi bo’lgan Toshkent avvalgi vaqlarda “Salomobod” deb atalgan. Qadimiy va ziyoratgoh joylari ko’p va ko’rkam bo’lgani uchun dunyoning yetti iqlimidan ko’rish uchun turistlar tashrif buyurishgan. Hozirgi vaqtdagi buning yagona farqi yurtimiz yanada dunyoga tanilgan va turistlarning soni ancha balanddir.

Azim poytaxtimiz Toshkentning ko’rkam visolini doston eng go’zal va ta’rif etib bo’lmas so’zlar bilan bitilganidan ham bilib olish mumkin.

Toshkent, sen o’zingsan azim poema,  
Seni asrab keldi ona kabi vaqt,  
Hech qachon, yo’limni tugatdim,- dema!  
Sen mangu shaharsan, kunday bezavol,  
Seni ta’rif qilgan dostonchining ham  
Baytlari tugashi, bu-amri mahol.

Ushbu satrlarni o’qigan har qanday yurt farzandi Toshkent jamolini ko’rgisi keladi albattvaq Dostonda nafaqat Toshkent go’zalligi ta’riflangan, balki unda o’zbek xalqi odamlari, ochiqyuzliligi, mehribon, mehmondo’sligi, shirin so’zliligi bolajon xaqlligi ochiq ko’rsatib berilgan. Ta’rif etsa so’z kamligi ham alohida aytib o’tilgan.



Hozirgi kunda ushbu yurt yanada ko’rkam qiyofa olgan. Yoshlari shijoatli, ilmga chanqoq. Mehnatkash xalqi, izlanuvchan yoshlar va Shayxzoda shogirdlari kabi ijodkorlar bilan yurt yanada dunyo yuzini ko’rib, rivojlanib boraveradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Toshkentnoma”, Maqsud Shayxzoda; 1957-yil;
2. Adabiyot (5-sinf). Axmedov S.; Qosimov B.; Qo‘chqorov R.; Rizayev Sh.
3. <https://arboblar.uz>
4. <https://ziyo.net>



## TARIXIY ROMANDA MUALLIF TO’QIMASI VA TARIXIY HUJJATLARGA ASOSLANGANLIK MASALASI

G’aniyeva Turg'unoy To'ychi qizi.  
ADU o'zbek adabiyoti kafedrasi 2-kurs magistranti  
TEL : +998995393660 abduvohidova96@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek tarixiy romanchilik tadriji, romanlardagi tarixiy shaxs masalasi, sujet yaratilishida tarixiy hujjatlarga asoslanganlik va muallif to'qimasi yetakchiligi qay darajada ekanligi tahlil etiladi. Shuning bilan birlgilikda har bir muallifning tarixiy asar yaratishdagi individual yondashuvi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot materiali sifatida Oybekning “Navoiy” hamda Odil Yoqubovning “Ulug’bek xazinasi” romanlari tarixiy haqiqatlarga moslik jihatidan o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** tarixiy roman, tarixiy-biografik roman, tarixiy fakt, to'qima obraz, davr xususiyatlari, xalq tili.

“Tarixiy roman xalqning e'tibori o'z o'tmishini xotirlashga qaratilgan bir vaziyatda paydo bo'ladi.” O'zbek romanchililing asosiy tarmoqlaridan sanalgan tarixiy roman namunalarini bugun ko'plab uchratishimiz tabiiy hol, albatta. Tarixiy prozamiz taraqqiyot yo'li davomida roman janri o'zining sermahsulligi bilan yetakchilikni bermay kelmoqda. Bir qator adabiyotshunos olimlar tarixiy prozamiz tadrijining ilk pog'onalarida Qodiriy asarlaridan so'ng “Navoiy” romanidan bo'lak biron yirik asar bo'limgaganligini ta'kidaydilar. Biroq 60-70-yillarda bu janrda yaratilgan asarlar soni va salmog'i shu qadar o'sdiki, ular o'qirmanni ham, sinchilarni ham shoshirib qo'ydi. Yana bir muhim jihatlardan biri shundaki, tarixiy romanlarning o'zi ham muayyan janr bo'linishlariga uchrab, uning turlari yana-da ko'payib, rang- baranglashib bordi. Dastavval markaziga real tarixiy shaxs hayoti va faoliyati, real voqealar hamda hodisalar borasida hikoya qiluvchi tarixiy romanlar sirasiga faqatgina “Navoiy” romanini kiritgan bo'lsak, endilikda bunday turdag'i asarlar salmog'i shu qadar o'sdiki, har qanday adabiyot ixlosmandining istalgan ma'naviy ehtiyojini qondirish imkoniyati paydo bo'ldi. Vazminligi, falsafiy chuqurligi, g'oyaviyligi va tarixga hamohangligi bilan o'z o'quvchilari tomonidan qadrlanib kelinayotgan “Navoiy” romanini markaziga ijodkor shaxsi, hayoti va faoliyati qo'yilgan tarixiy- biografik romandir. Mashhur sharqshunos olim Y.E.Bertels mazkur asar yaratilgan ilk yillardayoq quyidagi fikrlarni bildirgan edi: “Akademik Oybek juda katta tadqiqot ishini bajardi... Avtor o'zini XV asr davriga olib o'toldi. Navoiyga dahldor hamma xususiyat va voqealarning bizgacha yetib kelgan tarixiy material bilan tasdiqlanishi asarning ulkan muvaffaqiyatidir. Bundan tashqari roman o'zining ajoyib badiiy mukammalligi bilan ham ajralib turadi,” “Navoiy” romanining o'zbek adabiyotida ungacha yaratilgan tarixiy mavzudagi asarlardan ajratib turadigan xarakterli xususiyati shundaki, yozuvchi roman markaziga tarixiy shaxs hayoti va faoliyatini oladi, asarda to'qima obrazlar va voqealarga nisbatan o'tmishda bo'lib o'tgan tarixiy faktlar, taqdirlar ustun turadi. Navoiydek o'z davrining buyuk farzandi hayoti misolida butun o'zbek xalqi hayoti va tarixiy taqdiri o'zining atroficha aksini topadi. “Romanda ko'tarilgan Navoiy va xalq, davlat va xalq, o'zbek tili huquqi uchun kurash muammolari XV asr uchun aktual bo'lishi bilan birga, ularning bugungi kundagi ahamiyati nuqtayi nazardan ham tasvirlanadi.” Roman markaziga Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatining qo'yilishi asarning g'oyasi faqat Navoiy biografiyasini so'zlab berishdan iborat degani emas, albatta. Oybek bosh qahramon faoliyati zamirida xalq hayotida yuz bergen ijtimoiy voqelikni ochib berishni maqsad qilgan. Shu bois bu asar kompozitsiyasi xronoligik tartibda qurilmagan. Y.Tinyanov ta'kidlaganidek, muallifning asl niyati- “roman-. biografiyani roman- tarix darajasiga ko'tarish” edi. Oybek o'zigacha bo'lган ijodkorlar tajribalariga o'zgacha yo'naliш berib, romanda shoir va uning davlat bilan, xalq bilan aloqasi masalasini bosh masala darjasiga ko'tardi. Qahramon buyukligi o'z davrini soyaga qo'ymay, aksincha yana-da yaqqolroq namoyon bo'lishiga turtki bo'ldi. Tarixiy voqeliklar harakati asar sujetiga, davr qarama- qarshiliklari roman kanfliktiga asos bo'lib xizmat qildi. Ijodkor bu asarga o'tmishni chuqur ilmiy asoslarga tayangan holda haqqoniy tasvirlash prinsipi bilan yondashdi, shu boisdan “tarix haqida tavsif” berishda Oybekning badiiy asari bugungi eng yaxshi ilmiy asardan qolishmaydi.”

“Navoiy” romanini qanday yozdim” maqolasida yozuvchi o'z tajribalarini quyidagicha muhtasar bayon etadi: ”Ayrim boblardagi voqealar tarixiy, chin realdir; ayrim boblarda esa shu zamon xarakteriga muvofiq tuzilgan hayolimning natijasi, mevasidir. Romanda tarixiy voqealarni



to'g'ri bergenman, lekin ba'zan hayolga ham huquq berib qo'yanman; bu narsa istak, orzu, hislarimni ishi, ilhombaxsh narsalar, albatta.” Mazkur tarixiy roman yozilishi muallif uchun oson, mashaqqatsiz amalga oshmagan. Buning uchun uzoq yillar davomida ilmiy- adabiy izlanishlar olib borgan. Bu haqda adib shunday yozadi: “buning uchun, albatta, Navoiyning barcha asarlarini, Navoiy yashagan davrning tarixi, shu davrning sotsial qiyoфasi, u davr faoliyatining xarakteri, urfodati, hulq- atvori bilan tanishishga to'g'ri keldi. Ko'p tarixiy faktlar, materiallarni yig'dim, ularni tahlil etib, mag'zini chaqish uchun chuqr his etishga, o'ylashga boshladim.” Darhaqiqat, romanni yaratishda Oybek o'sha davr va Navoiy hayoti haqida ulkan faktik va ilmiy materiallarga ega edi. “Mening ish stolim ustida o'zim tomonimdan tuzilgan O'rta asr Hirotning kartasi yotar va men Hirotda uxlab, Hirotda uyg'onar edim.” Ijodkor chin ma'noda tarixiy romannavis Antonovskaya ta'kidlaganidek “yozuvchilarimiz faqat san'atkorgina emas, ilg'or fan yutuqlari bilan qurollangan tadqiqotchi ham bo'lislari kerak” ligini isbot etdi. Oybek mazkur asar orqali nafaqat tarixiy faktik jihatlarni, balki muayyan davr til xususiyatlarining qirralarini ham ochib berishga erishdi.” Men Navoiy tili qudratini, go'zalligi va husnini to'la ko'rsatishga tirishdim. Xonlar, podshohlar, vazirlar, beklarning dabdabali ifodalarini, ruhonilarning forsiy va arab so'zlariga g'arq bo'lган, bezalgan usullarini ko'rsatdim. Xalqning ma'noli, boy, original, jonli, o'ziga xos ravshan tilini ko'rsatdim. Buning uchun, albatta, u davr adabiyotini, hayotini, xalq tilini chuqr, mufassil o'rganishga tirishdim. Yozuvchilar tilni xalqdan o'rganishi lozim. Xalq tili ajoyib uchirmalar va dochiriqlarga boy, bitmas- tuganmas asl manbadir.”

Tarixiy romanlar borasida fikr yuritar ekanmiz, ularda tarixiy hujjatlardan ko'ra muallif ijodiy to'qimasi yetakchilik qilgan badiiy yaratiqlar ham ko'plab uchrashiga duch kelamiz. Odil Yoqubov “Ulug'bek xazinasi” romanini yozishda aynan shu yo'ldan, yana-da dalilli etib izohlaydigan bo'lsak, rus tarixiy romanlari ustasi sanalgan Y.Tinyanov ta'kid etgan quyidagi yo'ldan borgan: “Men tarixiy asar yozganda gapni hujjatlar tugagan nuqatadan boshlayman.” Yozuvchi “Ulug'bek xazinasi” romanini qahramon haqida tarixiy hujjatlar ma'lumoti uzilgan joydan boshlaydi, aniqrog'i, tarixning odatda hujjatlarga kiritilmaydigan tomonlarini o'quvchiga ko'rsatishni maqsad qilib qo'yadi. Biroq, asarning umumiyo yo'nalishida, asosida va ruhida tarixiy haqiqatlar yotadi. Ammo bu tarixiy hujjat degani emas, albatta. “Odil Yoqubov o'zing “Ulug'bek xazinasi” romanining sujetiga eng murakkab, eng ziddiyatli davrni asos qilib olgan. Romanda yozuvchi zulmat, jaholat bag'rida yorqin nur bo'lib porlagan, ertami- kechmi tantana qiladigan, avlodlarga Ulug'bek kashfiyotini yetkazadigan kuchlarni mehr bilan tasvirlaydi.” Muallif asarda real tarixiy voqelikni yoritishdan ko'ra uning sabab va oqibatlari masalasiga ahamiyat qaratadi. Shu bois romanda voqeja va xarakterlar ichdan yoritiladi, qahramonlarning ruhiy olami chuqr va batafsil ochiladi. Natijada asarda voqeadan ko'ra kechinma tasviri yetakchilik qiladi. Romanni mutolaa qilish asnosida biz yozuvchi bosh qahramon sifatida Mirzo Ulug'bekni tanlamaganligi, ushbu obrazni to'laqonli ochishga ko'p kuch sarf etmaganligiga guvoh bo'lamiz. Muallif Ulug'bek faoliyati haqida tugal ma'lumot bermaydi. Natijada u o'qirman xotirasida mukammal obraz sifatida o'rnashmay turib harakat maydonidan chiqib ketadi. Roman boshidagi qahramon hayotining so'nggi daqiqalari tasviri masalaga ko'tarilish uchun dastlabki pillapoya ekanligi namoyon bo'ladi. Shu tariqa yozuvchi o'zi yaratgan tarix boshlanib asar sujeti harakatlana boshlaydi. “O.Yoqubov talqini ulug' olimning oddiy inson sifatida umri davomida amalga oshirgan ishlarining yo'q bo'lib ketishidan xavotirini ota va og'il o'rtasida yuzaga kelgan ma'naviy jarlikni ko'rsatish barobarida, Abdullatifning boshiga tushajak ko'rguliklardan ogohlantirishga xizmat qiladi.” Bir tomonдан ota qonini to'kishga sabab bo'lgan taxt uchun kurash, ikkinchi tomondan esa ilm ahliga tahlika solib turgan mudhish vaziyat qarshiliklari, Ulug'bekning ilm xazinalarini saqlab qolish va uni kelajak avlod qo'liga bus- butunligicha yetkazish uchun shogirdlar kurashi boshlanib ketadi. Bu ikki jabhaning ham o'z qahramonlari- o'z salbiy va ijobjiy tiplari maydonga keladi. Nobakor padarkush Abdullatif va uning qo'yniga ilon bo'lib kirib olgan bir to'p tuban kishilar hamda Ali Qushchi, Qalandar Qarnoqiy, Miram Chalabiy, usta Temur kabi insoniylik fazilati uyg'oq bo'lgan kishilar kurashi yuzga keladi. Romandagi eng to'laqonli obrazlardan biri Ali Qushchidir. Ustozi va kelajak avlod oldidagi qarzdorlik hissi uni yuksak mas'uliyatni zimmasiga olishga undaydi. ”Ali Qushchi obrazi o'zining to'laligi bilan ko'proq maftun etadi. Bu chindan ham huddi shundaydir. Ko'pincha shunday bo'ladiki, tarixiy roman yoziladi-yu, ammo tarixiy tadqiqotlarga e'tibor berilmaydi. Bu yerda esa muallif fanning izidan boradi, ilmiy ma'lumotlarga suyanadi, XV asrga oid Samarqand hujjatlarini tadqiq qilgan tarixshunoslar asarlaridan ma'lum bo'ladiki, Ali Qushchi haqiqatdan 1470-1471- yillarda jo'nab ketgan. Tarixshunoslar qayd etgan ana shu tarixiy faktga romanda



roiya qilingan.” Ali Qushchi shaxsi tarixda real va muayyan yo’nalishda faoliyat ko’rsatgan bo’lsada uning faoliyatini detallashtirib, to’ldirib, to’laqonli hayotiy shaklga kiritishda yozuvchining boy tajriba va fantaziyasi katta ahamiyatga ega. “Yozuvchi saqlanib qolgan uzuq- yuluq tarix parchalaridan katta hayot kitobini yarata olgan.” Yozuvchining yuksak mahorati bizga tarixni butun ichki tafsilotlari bilan ko’rishga imkon yaratadi. “Davr ruhiga hamohang g’oyalarni ilgari surganligi uchun ham “Ulug’bek xazinasi” zamonaviy asarlar safidan o’rin oldi, davr va inson, shaxs va jamiyat taqdiri haqida o’ylashga imkon berdi, zero, shu bois ham u biz uchun qadrlidir.” O’quvchi boshqa biror qo’llanmadan yoki tarix kitoblaridan olomagan ma’lumotlarga mazkur romanni o’qish barobarida ega bo’lib boradi. Zero, tarixiy roman uchun bosh mezon ham aslida shu. Albatta, har qanday ijod mahsulida kamchilik bo’lishi tabiiy. “Mirzo Ulug’bek obrazining nisbatan zaif ishlanganligi asarda biroz ko’zga tashlanadi. Biz romanda qirq yil taxt tebratgan, o’zining qattiqqo’lligi bilan nom taratgan tasavvurimizdagi keskir Ulug’bekni ko’rmaymiz.”

Tarixiy hujjatlarga asoslangan va tarixiy haqiqat yozuvchining fantaziyasi bilan boyitilgan yuqorida badiiy asarlarni imkon qadar muayyan aspketda tahlil qilish jarayonida quyidagi xulosaga kelamiz:

- Tarixiy voqealar haqida aniq va konkret tasavvur berishda birinchi yo’nalish ancha samarali. Bunda tarix yozuvchining mahoratiga qarab yorqin yoki yuzaki tafsiflanadi.
- Yozuvchining tarixiy haqiqatni badiiy o’rganib chiqib, ana shu haqiqat asnosida ma’lum tarixiy voqe, tarixiy shaxs haqida mulohaza yuritishi obrazlar vositasida yana-da badiiy dalillanadi. Bu orqali ijodkor tarixning bizga yashirin bo’lgan jihatlarini garchi to’qima bo’lsada real tasvirlarda ochib beradi. Bu usulning xarakterli jihat shundaki, bunda badiiy kashfiyotlar qilish uchun keng imkoniyatlar mavjud bo’ladi.

Markazida konkret tarixiy shaxs yoki voqe turmagan, sujet asosan to’qima qahramon va voqealarga asoslangan bo’lishiga qaramay materiali tarix sanalgan va asosiy qahramoni xalq bo’lgan hamda bular yozuvchining aniq mulohazasi asosida tadqiq etilgan tarixiy asarlar yaratish an’anasi bugungi kunda ham samarali davom etmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Толстой А.Н. Полн. Собр. Соч. т. 13, М.. ГИХЛ, 1949, стр. 511.
2. “Правда востока” газетаси, 1945-й, 18-фев.
3. Kattabekov A. “Tarix saboqlari”. G’.G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1986, 220-b.
4. Izzat Sulton “Adabiyot nazariyasi” Т-, ”O’qituvchi”, 2005. 16- bet.
5. Oybek. “Navoiy” romanini qanday yozdim. Adabiyotimiz avtobiografiyasi. Т., G’.G’ulom nomidagi adaboyit va san’at nashriyoti, 1973, 160-bet
6. “Биография замысла.” стр 53
7. I.L.Grinberg. Sharq yulduzi, 1980-7
8. Risolat Haydarova. Sharq yulduzi. 2017-2.
9. L.I.Klimovich. sharq yulduzi 1980-7.
10. P.Shermuhammedov. Sharq yulduzi 1980-7.

# **ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 8-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шоҳруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000